

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDAGI OKKAZIONALIZMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

**Shadiyeva Dilfuza Shamirzayevna**

*“International school of finance technology and science” instituti o‘qituvchisi filologiya fanlari  
nomzodi*

### ARTICLE INFO.

**Tayanch so‘zlar:** okkazionalizm, affiksatsiya usulida hosil qilingan okkazionalizmlar, kompozitsiya usulida hosil qilingan okkazionalizmlar, transpozitsiya, tavzi’, tarse’, metaforik ma’no ko‘chishi, antiteza.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlaridagi okkazionalizmlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan, shuningdek ularning yasash yo'llari misollar yordamida tahlil qilingan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

“Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo yangi so‘z yasashga intilib keldilar. Bu qonuniyatdir, chunki so‘zning tasviriy imkoniyatidan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g‘ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati ijodkorlarni ana shunday yo‘l tutishga undaydi”.<sup>1</sup> Ana shu ehtiyoj tufayli adiblar dunyoqarashigagina xos bo‘lgan, faqat ularning asarlaridagina uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan yasalmalar, favqulodda o‘zgacha birliklar – okkazionalizmlar vujudga keladi.

Demak, okkazionalizm noodatiy yasash, noodatiy qo‘llanishdir.

Muhammad Yusuf she'rlarida okkazionalizmlar qo‘shimchalar ishtirokida yoki kompozitsion usulda qo‘shma so‘z tarzida hosil qilingan. Shunga ko‘ra, ularni ikki guruhga bo‘lib ko‘rib chiqish o‘rinlidir. Quyida kompozitsion usulda yasalgan ayrim okkazionalizmlar tahlil etildi.

Muhammad Yusuf she'rlarida uchraydigan qo‘shma so‘z holiday okkazionalizmlar quyidagi yo‘llar bilan yasalgan:

1. So‘z birikmasini qisqartirish, soddalashtirish orqali yasalgan okkazionalizmlar.

Bunday yo‘l bilan qo‘shma so‘z yasash sintaktik-leksik usul hisoblanadi. Chunki bu usulda “so‘z birikmasi komponentlari bir ma’no markaziga birlashadi, birikma tarkibidagi so‘zlar so‘zlik holatini yo‘qotadi, so‘z birikmasi grammatik va fonetik jihatdan bir butun holga keladi... Masalan: *ko‘rsichqon, oshpichoq, qizilurug‘ va b.*”<sup>2</sup>

*Otangizga rahmat, qo‘shiqqirqarlar.* (“Qo‘shiqqirqarlar”)

Atributiv birikmadagi hokim bo‘lakning tushirib qoldirilishi (soddalanish), tobe qismning otlashuvi (transpozitsiya) yangi yasalmalarni vujudga keltirishini *qo‘shiqqirqarlar* (qo‘shiq matnini qirqib

<sup>1</sup> Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. T.: Fan, 1988. 87-b.

<sup>2</sup> Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft, takroriy so‘zlar. – T.: 1989. 9- b.

qisqartiruvchilar) okkazionalizmida kuzatish mumkin. *Qo'shiqqirqar* okkazionalizmini unga to'liq ma'nodosh bo'la oladigan *qo'shiqtarosh(lik)*<sup>3</sup> yasalmasi bilan qiyoslash o'rinlidir. Garchi bu ikkala yasalma bir ma'noni ifodalayotgan bo'lsa ham, *qo'shiqqirqar* okkazionalizmi qismlari tarkiblanishiga ko'ra o'z qatlamga, *qo'shiqtarosh* so'zi qismlari esa o'z qatlam+o'zlashgan qatlamga (**tarash** - f.t. kesish, yo'nish, tarashlash<sup>4</sup>) tegishli.

*Qoldim kulko'rpamda To'shagim – tuproq.* (“Surat”)

*Kulko'rupa* yasalmasi haqida ushbu fikr-mulohazalar o'rinli deb hisoblaymiz.

Ayrim okkazional so'zlar yasovchi asosni sinonimik va antonimik munosabatlardagi so'z bilan almashtirish tufayli ham yuzaga keladi. Masalan, *to'g'rig'o'y (rostgo'y) – yolg'ongo'y, bo'shqadam (peshqadam)* yasalmalarida ushbu holatni kuzatish mumkin.<sup>5</sup> *Kulko'rupa* yasalmasi, fikrimizcha, *gulko'rupa* qo'shma so'ziga ham qofiyadosh, ham yasovchi asos antiteza munosabatidagi so'z bilan almashgan [Solishtiring: *gul* (yashnamoqlik ramzi) – *kul* (kuyib xarob bo'lmoqlik ramzi)].

Ba'zi o'rinlarda *qaratqich+qaralmish* tipidagi birikmalar qo'shma so'zga aylantirib yuborilgan:

*Samarqandnon qayda bor-a,*

*O'zbekiston qayda bor?! (“Qayda bor?”)*

Keltirilgan parchada *Samarqandnon* hamda *O'zbekiston* so'zlari, birinchidan, she'rdagi o'ziga xoslikni ta'minlasa, ikkinchidan, tarse' san'atini, ya'ni ikkala misradagi so'zlar qofiyadoshligini yuzaga keltirgan.

2. Analogiya asosida qo'shma okkazional birliklar hosil qilish shoir ijodida ko'p uchraydi: Bunga misol sifatida *yo'lbarsyurak, sirtlonpanja, kerosingul, yuksakbaho* kabi yasalmalarni keltirish mumkin.

Muhammad Yusuf ijodidagi okkazionalizmlarni hosil qilishda ayrim so'zlar faol qo'llangan. Jumladan, shoir ijodida *tol* so'zi bilan to'rtta yangi yasalma vujudga keltirilgan – *tolkosa, tolbeshek, tolko'cha, buramatol*.

*Tolkosaday makoni bor ayronning* (“Bu beshafqat...”)

*Uy to'rida tolbeshek.* (“Beshinchi o'g'il”)

*Tolko'chaga suv sepishni boshladi kelin...* (“Manzara”)

*Buramatol bog'da sizni ko'rdim qaydanam.* (“Asakalik qizga”)

Dastlabki ikki yasalma (*tolkosa, tolbeshek*)da *tol* so'zi qo'shma so'zning komponenti sifatida xomashyoni bildirsa (ya'ni *tol* daraxti yog'ochidan yasalgan beshik, kosa), keyingi ikki so'z (*tolko'cha, buramatol*) tarkibida u daraxt nomi (ya'ni *tol* daraxti bor ko'cha, *tolning turi*)ni anglatadi.

*Oy* so'zi bilan: *oyqaboq, oybeka* - ushbu okkazionalizmlar uchun *oy* so'zining *oy yuz* birikmasi kabi chiroylilik ma'nosi asos bo'lgan deb hisoblash mumkin.<sup>6</sup> *Oyqaboq* yasalmasidagi ikkinchi komponent (*qaboq*)ning badiiy uslubda qo'llanishi erkalashni kuchaytirgan:

*Rayhon, aylanay rayhoningdan sening,*

*Oyqaboq go'zalim, joningdan sening.* (“Rayhon”)

*Oybeka* yasalmasida ham go'zallikni anglatish, erkalash ma'nolari ustundir:

<sup>3</sup> Toshaliyeva S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi. Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T.: 1998. – 56-b.

<sup>4</sup> O'TIL, II. 124-b.

<sup>5</sup> Toshaliyeva S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi. Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T.: 1998. – 48-b.

<sup>6</sup> O'TIL, I. 527-b

*Ostonangda olti mingta iz ko'rdim,*

***Oybekangni avaylagin, hushyor bo'l.*** (“Ko‘k darvoza”)

*Ostona, olti, oybeka* so‘zlari misralardagi musiqiylikni yanada oshirgan. *Oybeka* yasalmasi qolgan ikki so‘zga tovushdosh bo‘lib, tavzi’ san’atini yuzaga keltirgan.

*Temir* so‘zi bilan: *temiroyoq, temirdil*. *Temiroyoq* okkazonalizm uchun temirning mustahkamlik, qattqlik jihati metaforik ma’no ko‘chishiga asos bo‘lgan (ya’ni temirdek mustahkam oyoq). O‘TILda keltirilgan *temir iroda, temir panja* kabi birikmalarga ham temirning shu jihatlari asos bo‘lgan<sup>7</sup>

*Tinmas temiroyog‘im,*

*Kuymas ko‘miroyog‘im,*

*O‘g‘limdan xat keltirgin.*

she’riy parchasiga diqqat qilinsa, *tinmas temiroyog‘im, kuymas ko‘miroyog‘im* birikmalaridagi tovushdoshlikni ham kuzatish mumkin. *Temiroyoq, ko‘miroyog* qofiyadosh yasalmalari xat tashuvchiga nisbatan sifatlashni yuzaga keltirgan.

*Temirdil* okkazonalizmi *tosh yurak* birikmasi bilan ma’nodosh bo‘la oladi. Lekin birikmadan farqli tomoni shundaki, *tosh yurak* birikmasida toshning qattqligi ma’no ko‘chishini yuzaga keltirgan bo‘lsa, *temirdil* so‘zida temirning qattqligi bilan birga sovuqlik jihati ham yangi yasalma uchun asos bo‘lgan:

***Temirdil* odamlardan Dahshat qanday vabo bor?** (“Temirlar nidosi”)

Agar temirning qattqlik darajasi toshning qattqligiga nisbatan yuqori ekanligini inobatga olsak, *toshbag‘ir* va *temirdil* so‘zlari ma’noviy sinonimik qator hosil qilayotganini ko‘ramiz. Biroq *temirdil* yasalmasida o‘ziga xoslikni kuzatamiz: bu so‘zda bo‘yoqdorlik kuchliroq ifodalangan. Chunki *toshyurak* yasalmasi ko‘p ishlatilishi, kishilarga odatiy bir so‘z kabi tuyulishi bilan o‘z bo‘yoqdorligini yo‘qotgan. Ana shu yangilik va eskilik – odatiylik *temirdil* va *toshyurak* yasalmalarining ta’sirchanlik darajasini belgilagan.

Ba’zi okkazonalizmlar uchun tana a’zolarining nomlari (*zabon, bosh, barmoq, tirnoq, yurak* va b.) asos bo‘lganligini, yasalmalarning birinchi qismi esa ularning belgisini bildiruvchi so‘zga aylanganligini ko‘ramiz. *Bulbulzabon, tillobarmoq, yolg‘izbosh, yo‘lbarsyurak, sirtlonpanja, shertirnoq* yasalmalari shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida quyidagilarni qayd etish o‘rinlidir:

- Muhammad Yusuf she’rlaridagi okkazonalizmlar ifodalilikning yangi vositasi sifatida boshqa til vositalari bilan birgalikda asarning badiiy mazmunini ochishga xizmat qiladi;
- ayrim yangi yasalmalar atributiv birikmadagi hokim bo‘lakning tushirib qoldirilishi, tobe qismning otlashuvi natijasida vujudga keltirilgan;
- analogiya asosida hosil qilingan qo‘shma okkazonal birliklar aksariyat hollarda *ot+ot* qolipida bo‘lib, qo‘shma so‘z holida sifatga aylangan;
- Ushbu yasalmalar matnda ma’lum bir stilistik vazifani bajarishga xizmat qiladi. Okkazonalizmlarning qo‘llanishi tavzi’, tarse’ kabi badiiy san’atlarning chiroyli namunalari yuzaga keltirishda alohida o‘rin tutadi.

<sup>7</sup> O‘TIL, II. 159-b

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. T.: “Sharq” NMAK, 2007.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (O‘TIL). M.: “Rus tili”, 1981.
3. Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. T.: “Fan”, 1988.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: “O‘zbekiston” Milliy ensiklopediyasi, 2002.
5. Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft, takroriy so‘zlar. – T.: 1989.
6. Toshaliyeva S. O‘zbek tilida okkazional so‘z yasalishi. Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T.: 1998.
7. Nusratullayevich, P. T. B. (2022). The role of alisher Navoi’s spiritual heritage in the moral education of youth. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(4), 38-39.
8. Sherzodovich, A. S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. *Science and education*, 1(3), 524-528.